«TASDIQLAYMAN»
"O'zmilliybank" AJ Jizzax viloyat
Bosh boshqarmasi boshlig'i
N.Islamov
" 23 " aprel 2026 y

"O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ
Axborot va bank xavfsizligi departamenti rahbarligida o'tkazilgan
38 - sonli yig'ilish BAYON1

"23" aprel 2026 y **Jizzax shaxri**

Raislik qildi: **Sh.Muxamadkulov -** " O'zbekiston Respublikasi Tashki iqtisodiy faoliyat milliy banki" AJ Axborot va bank xavfsizligi departamenti direktori

Qatnashdilar: **N.X.Islamov -** "O'zmilliybank" AJ Jizzax viloyat Bosh boshkarmasi boshligi

Bosh boshkarma boshlig'i o'rinbosarlari. bo'lim boshliqlari. Jizzax viloyat Bosh boshqarmasi xodimlari (41 ta). "Jizzax Amaliyot" BXM (36 ta). *ZOOM orqali* Industrial (23 ta). Mirzacho'l (22 ta) bank xizmatlari markazlari. shuniigdek Paxtakor (5 ta) bank ofislari mudirlari va xodimlari qatnashdilar.

K U N T A R T I B I:

1. Bank xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishiga, korrunsiyaviy xolatlarning oldini olish va manfaatlar to'qnashuviga hamda boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'rish:
2. Bosh boshqarma va uning tasarrufidagi bank xizmatlari markazi hamda bank xizmatlari ofislari xodimlari tomonidan huquqbuzarliklar sodir etilishiping oldi olinishi va Bankning "Etika kodeksi" talablariga rioya etilishi;

Yigilishni Bankning Axborat va bank xavfsizligi departamenti direktori Sh.Muxamadkulov o'z so'zi bilan ochib ishtirokchilarni kun tartibidagi masalalar dolzarbligi hamda "O'zmilliybank" AJ tarkibiy tuzilmalari va hududiy filiallarida Bosh boshqarmalarida amalga oshirilayotgan ishlarga to'xtaldi;

O'tgan ikki xafta ichida " O'zbekiston Respublikasi Tashki iqtisodiy faoliyat milliy banki" tasarrufidagi hududiy bosh boshqarmalarida faoliyat yuritayotgan raxbar va xodimlar tomonidan korrupsiyaviy hamda firibgarlik va boshqa turdagi jinoyatlar sodir etilganligini aytib o'tdi.

Jumladan, kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagilarni, ya'ni "O'zmilliybank" Namangan viloyati Bosh boshqarmasi muammoli kreditlar bilan ishlovchi xodimi bir

tadbirkor bilan bankga aloqasi bo‘lmagan ishlarga vositachilik qilgani uchun jinoiy javobgarlikka tortilganligini, shu yilning 11-12 aprel kunlari “O‘zmilliybank” Farg‘ona viloyati Bosh boshqarmasi amaliyot BXM kassиri tomoidan kassaga qabul qilingan katta miqdordagi pullar o‘g‘irlab, qimor o‘yiniga tikib yuborganligi aniqlanib unga nisbatan ham qonuniy chora ko‘rilganligini, “O‘zmilliybank” Surxandaryo viloyati Bosh boshqarmasi Termiz amaliyot BXM Hisob kitob va biznesni texnik qo‘llab quvvatlash sho‘basi mudiri tomonidan o‘zining javobgarligida bo‘lgan bankamatlardan 370 million so‘m pullarni o‘g‘irlaganligini, bundan tashqari Andijon viloyati Bosh boshqarmasi raxbar xodimi fuqarodan 40 000 dollor pora olgan vaqtida DXX hamda Bosh prokuratura Iqtisodiy jinoyatchiolikka qarshi kurashish departamenti xodimlari tomonidan jinoyat ustida ushlanib, qamoqqa olinganligini ma’lum qildi.

Sh.Muxamadkulov so‘zining davomida yuqorida ko‘rsatilgan xolatlar sodir yetilganligi achinarli ekanligini, xodimlar o‘zining va yaqinlarini kelajagini o‘ylamasdan, nopok ishlarga qo‘l urishib, so‘ng pushaymonlikni xisobga olmaslik oqibatida ularga nisbatan intizomiy jazo choralariiing qo‘llanilishi yoki jinoiy javobgarlikka tortilishlariga sabab bo‘lishini ma’lum qilib, xar bir xodim o‘zining lavozim majburiyatlarini amalga oshirish davomida korrupsiyaviy va manfaatlar to‘qnashuvi xolatlarining xar qanday ko‘rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo‘lishi va unga qarshi ayovsiz kurashishi xodimlarning eng ustuvor vazifasi etib belgilanishini, bundan tashqari, xodimlar orasida sog‘lom muxitni yaratish, guruxvozlikka yo‘l qo‘ymaslnk, xodimlarning shaxsiy xavfsizligiga hamda Bank sha’niga imidjiga dog‘ tushirmaslik, yangi ishga qabul qilingan yosh xodimlarni vazifasiga vijdonan yondashishiga, xech qanday noqonuniy xatti-xarakatlar sodir etmaslik kerakligini, xodimlar raxbarlar tomonidan doimiy nazorat qilinishini, korrupsiya va boshqa turdagi jinoyatlarga hamda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymasliklari uchun "O‘zbekiston Respublikasi Tashki iqtisodiy faoliyat milliy banki” tomonidan barcha sharoitlarni yaratib berayotganligini, xattoki oylik maoshlarni ham oshirish choralari ko‘rilayotganlini ma’lum qilib, bank xodimlari tomonidan ishda ham ishdan tashqarida ham xech qanday korrupsiyaviy xatti-xarakatlarni hamda boshqa turdagi jinoyatlarni sodir etmasliklarini va bunday jinoyatlarga aralashib qolmasliklarini takror-takror ta’kidlab o‘tdi.

Sh.Muxamadkulov so‘zining yakunida Bankning "Etika kodeksi" talablariga muvofik bank mijozlariga xushmuomalada bo‘lishlari va ularga xizmat ko‘rsatilishida kasb odobnomaga rioya etishlari, ularning tashqi ko‘rinishlari belgilangan standart talablarga muvofik bo‘lishi lozimligini aytib o‘tdi.

Yuqoridagilarga asosan yig‘ilish.

QAROR QILADI:

1. "O‘zmilliybank” AJ Axboroz va bank xavfsizligi departamenti raxbarligida Jizzax viloyati Bosh boshqarmasida 2026 yil 23 aprel kuni o‘tkazilgan yig‘ilish yakunlangan deb xisoblansin va ijro uchun qabul qilinsin.
2. Kelgusida xodimlar tomonidan korrupsiyaviy va boshqa turdagi jinoyatlar, Manfaatlar to‘qnashuvi xolatlari sodir etilmasligi uchun hamda bunday sodir etilishi mumkin bo‘lgan xatti-xarakatlarning oldini olish maqsadida doimiy ravishda profilaktik tadbirlarini o‘tkazib borilishi, bunda boshqa mutasaddi tashkilotlar bilan xamkorlikda huquqbuzarliklarga qarshi kurashish borasida uchrashuvlar tashkil

etilishi ta'minlansin.

3. Xavfsizlik, rejim va axborotni ximoyalash bo'limi (S.Djulanov). Korrupsiyani oldini olishni muvofiqllashtirish bo'limi (G'.Yunusov) Xodimlar bilan ishlash bo'limi (S.Xolmatova) tomonidan kelgusida Jizzax viloyati Bosh boshqarmasi xodimlarinnng o'z lavozim majburiyatlarini vijdonan va pok amalga oshirishlari. korrupsiyaviy va manfaatlar to'qnashuvi xolatlarining xar qanday ko'rinishlariga nisbatan murosasiz munosabatda bo'lish va unga qarshi ayovsiz kurashish maqsadida xuquqiy savodxonligini rivojlantirish bo'yicha targ'ibot ishlari amalga oshirilsin.
4. Ushbu yigilish bayoni topshiriqlari ijrosi yuzasidan nazorat Bosh boshqarma boshligining o'rinbosarlari, Xavfsizlik. rejim va axborotni ximoyalash bo'limi Korrupsiyani olishni muvofiqlashtirish bo'limi hamda Xodimlar bilan ishlash bo'limi zimmalariga yuklatilsin.

Bayonnoma tuzuvchi: **G'.Yunusov**